

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZIYAVITDINOV HABIBULLO HAMIDOVICH**

**RESTORAN XIZMATLARI SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI**  
**OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Nukus - 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic  
sciences**

**Ziyavitdinov Habibullo Hamidovich**

Restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....3

**Зиявитдинов Хабибулло Хамидович**

Совершенствование организационно-экономического механизма повышения качества и конкурентоспособности ресторанных услуг.....25

**Ziyavitdinov Habibullo Hamidovich**

Improving the organizational and economic mechanism for improving the quality and competitiveness of restaurant.....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZIYAVITDINOV HABIBULLO HAMIDOVICH**

**RESTORAN XIZMATLARI SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI**  
**OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Nukus - 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Iqt1881 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Matyakubov Umidjon Raximovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Safarov Farxod Anvarovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03.30.01.2020.I.20.06 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil « 08 » dekabr kuni soat 11 11 da majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-60-78; faks: (99861) 223-60-19; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 221 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-60-78; faks: (99861) 223-60-19; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 19 » noyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil « 19 » noyabr da 04 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kattibi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori  
(PhD), dotsent

B.S.Kalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda restoran biznesi iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi turmush sifatini oshirishdagi ahamiyati bilan bir qatorda bugungi kunda kichik biznes va hududlar infratuzilmasini rivojlantirish, ishbilarmonlik faolligi va investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim ijtimoiy-iqtisodiy manbai sifatidagi o'zni tobora oshib bormoqda. Restoranlar va mobil ovqatlanish xizmatlarining global bozori 2022-yildagi 2854,8 milliard AQSh dollariga va 2023-yilda esa 3025,6 milliard AQSh dollariga oshib, yillik o'sish 6,0 %ni tashkil etdi. Restoran va mobil oziq-ovqat xizmatlari bozorining 2027-yilga kelib, yillik o'sish sur'ati 5,8 %ni tashkil etishi (3790,3 milliard AQSh dollar) kutilmoqda<sup>1</sup>. Restoran xo'jaliklari sifati va raqobatbardoshligini oshirishda bugungi kunda sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish o'ta dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda restoran xo'jaliklari biznesini samarali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada globallashtirish sharoitida restoran xizmatlar samaradorligini baholash yondashuvi va usullarini individual talabga ko'ra takomillashtirib borish, xizmatlar samaradorligini hududiy imkoniyatlar va integral omillarga ko'ra oshirish, restoran tadbirkorligi rivojlanishining omillari va tendensiyalarini aniqlash, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini omilli yondashuvga ko'ra ta'minlash, sohaga innovatsion usullarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, restoran tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish kabi yo'nalishidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida aholi turmush sifatini oshirish, xizmatlar sohalari, jumladan restoran xizmatlari sohasini barqaror rivojlantirish, umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy restoran xizmatlari turlarini kengaytirish asosida aholining restoran xizmatlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda - zamonaviy bozor xizmatlari, ta'lim, tibbiyot, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish vazifalari belgilangan<sup>2</sup>. Bu vazifalarni hal etishda zamonaviy restoran xizmatlari samaradorligini oshirish, restoran xizmatlar samaradorligini baholash yondashuv va usullarini takomillashtirish, restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini har bir iste'molchi talabiga ko'ra ta'minlash, sohada innovatsion usullarni joriy etish mexanizmlari kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish alohida ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup> Restaurants and mobile food service global market report 2024 - <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/restaurants-and-mobile-food-services-global-market-report>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.01.2022 yildagi PQ-104-son "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" - <https://lex.uz/docs/-5840284>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 27-apreldagi 246-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Servis iqtisodiyoti shakllanishi, xizmatlar sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlarini xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, M.E.Porter, M.R.Kramer, Y.A.Shumpeter, T.Sakaiya, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdikva boshqalar tomonidan tadqiq qilingan<sup>3</sup>.

MDH mamlakatlarida restoran xizmatlari sohasi rivojlanishining nazariy va uslubiy jihatlarini E.V.Agamirova, V.V.Borodina, A.Yu.Kalashnikov, Yu.Yu.Kolesnikova, S.N.Naumov, D.V.Soldatenkov, M.A.Isaev, O.Nazarov va boshqa olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan<sup>4</sup>.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi, shuningdek, restoran xizmatlar bozorining rivojlanish muammolari bo‘yicha o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardaev, M.E.Po‘latov, M.M.Muxammedov, D.R.Zaynalov, Q.J.Mirzaev, D.X.Aslanova, B.A.Abdukarimov, J.I.Isroilov, G.X.Utemuratova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar<sup>5</sup>.

---

<sup>3</sup> Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под.ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Porter M.E., Kramer M.R. Strategy and Society: The Link Between Competitive Advantage and Corporate Social Responsibility // Harvard Business Review. 2006, December, pp. 78-92; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия[Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Sakaiya, T. The Knowledge-Value Revolution, or A History of the Future. Tokyo-N.Y., 1991; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.

<sup>4</sup> Агамирова Е.В. Управление персоналом в туризме и гостинично-ресторанном бизнесе. – М.: Издательский дом «Дашков и Ко», 2007; Бондаренко Г.А. Менеджмент гостиниц и ресторанов: Учебное пособие. – М.: Изд-во «Новое знание», 2008; Бородина В.В. Ресторанно-гостиничный бизнес: учет, налоги, маркетинг, менеджмент/ В.В.Бородина. – М.: Книжный мир, 2009; Калашников А.Ю. Кафе, бары и рестораны: Организация, практика и техника обслуживания. - М.: Изд-во «Велби»; «Проспект», 2006; Колесникова Ю.Ю. Формирование и развитие сетевых структур в ресторанном бизнесе Дисс...уч. ст. канд. экон. наук. Санкт - Петербург – 2011; Наумов С.Н. Предприятия общественного питания России: тенденции и перспективы // Финансовая газета. - 2011. - №46; Солдатенков Д.В. Современный ресторан. Новые форматы. - М.: Ресторанные ведомости, 2006; Развитие ресторанного бизнеса в России. / М.А. Исаев [и др.] //Социально-экономические показатели регионов России: данные исследовательской компании «Комкон». - М.: 2010; Назаров О. Как загубить ресторан. Азбука типичных ошибок. - М.: Изд-во «Ресторанные ведомости», 2007.

<sup>5</sup>Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э.,

Yuqorida keltirilgan olimlar xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirish, umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini tashkil etish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar. Biroq ushbu tadqiqotlarda restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shunga ko'ra, respublikamizda restoran xizmatlariga talabini to'liq qondirish, restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda OT-F1-04 raqamli "Raqobatbardosh turizm zonalari va klasterlarini shakllantirish asosida O'zbekistonda turizmni davlat darajasida barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"restoran biznesi" va "restoran xizmatlari" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritib berish va muallif yondashuviga ko'ra, takomillashgan ta'rifni ishlab chiqish;

restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning xususiyatlari, omillari va shart-sharoitlarini aniqlash;

restoran tadbirkorligi sohasida xizmatlar samaradorligini baholash usullarini tasniflash;

iqtisodiyoti yetakchi davlatlarda restoran tadbirkorligi rivojlanishining holati va tendensiyalarini tahlil etish;

Buxoro viloyatida restoran tadbirkorligi sohasining rivojlanish omillari va tendensiyalarini tahlil etish;

restoran xizmatlari sohasi rivojlanishining ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

---

Мирзаев Қ.Ж., Мусаев Б.Ш., Ташматов Ш.У., Сиддиқов А.А. Ресторан менежменти. Дарслик. – Т.: "Innovatsion rivojlanish Nshriyot – Matbaa uyi", 2021. – 500 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Тухлиев И.С., Хайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б.;Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Абдукаримов Б.А. Ички савдоиктисодиёти. Дарслик, II қисм Т.: «Фан ва технология». 2008.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Киев. 1992.; Утемурадова Г.Х. Совершенствование методологии повышения эффективности инвестиционной деятельности в сфере услуг // Экономика и предпринимательство. 2022. №10(99).

restoran tadbirkorligi sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyeksi sifatida** sifatida Buxoro viloyatidagi restoranlarning xo‘jalik faoliyatini yuritishi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** restoran xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimli tahlil, monografik, taqqoslama, indeks, guruhlash, grafik, loyihalash, regression-korrelyatsion tahlil, ekspert baholash, prognoz va imitatsion modellashtirish usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

restoran xo‘jaliklarda tovar aylanmasining integral samarasini baholash yondashuvi mehnat unumdorligi, reja (indekativ reja) bajarilish davomiyligi va mahsulotlar guruhlari bo‘yicha o‘rtacha narx indeksi o‘zgarishlari ta‘sirini omilli baholashga ko‘ra takomillashtirilgan;

restoran xizmatlari sifatini baholash yondashuvi sifat maqsadlarini bosqichlar bo‘yicha belgilashni shakllantirish va unga ko‘ra ko‘rsatiladigan xizmatlarga iste‘molchilar talabini qondirish sifatni o‘lchash qamrovi va darajasini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

restoran biznesi raqobat strategiyasi sohada raqobat darajasining ortib borishi sharoitida chora-tadbirlar kompleksida xizmatlarning xavfsizlik darajasini oshirish, restoran xizmatlari infratuzilmasini mutanosib rivojlantirish va yagona axborot tizimini ishga tushirish zaruratiga ko‘ra takomillashtirilgan;

Buxoro viloyatida restoran xizmatlari bozorini barqaror rivojlanish dinamikasiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushini oshirishning 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“restoran biznesi” va “restoran xizmatlari”ning mualliflik takomillashtirilgan ta‘rifi ishlab chiqilgan;

restoran mahsulotlariga talabning shakllanishi, restoran biznesida mehnat mazmunining o‘ziga xosligi, restoran xizmatlarining texnologik va tashkiliy jihatlari hamda ovqatlanishni tashkil etishning milliy xususiyatlariga ko‘ra restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish omillari aniqlashtirilgan;

restoran biznesi bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimi samaradorligini oshirish maqsadida nodavlat tuzilmalar bilan restoran biznesini rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilish va gorizontal idoralararo tasdiqlash tizimini shakllantirishni takomillashtirish bo‘yicha taklif asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, umumiy ovqatlanish va restoranlar hisobotlaridan olingani hamda xulosa va

tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini baholash, xizmatlar ko'rsatish jarayonini modernizatsiyalash va innovatsion asoslarini takomillashtirishga hamda zamonaviy restoran xizmatlarini boshqarish yo'nalishlaridagi ilmiy-tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalardan restoran biznesini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, sohada mehnat unumdorligini oshirish hamda me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, o'quv jarayonida fan dasturlarini tayyorlash, "Restoran menejmenti", "Restoran biznesi", "Real sektorda sifatni boshqarish" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

restoran xo'jaliklarda tovar aylanmasining integral samarasini baholash yondashuvi mehnat unumdorligi, reja (indekativ reja)ning bajarilish davomiyligi va mahsulotlar guruhlari bo'yicha o'rtacha narx indeksi o'zgarishlari ta'sirini omilli baholashga ko'ra takomillashtirish taklifi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Buxoro viloyatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hududiy dasturi" va "Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha Yo'l xarita"larini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 24-avgustdagi 11/02-30-10291-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida restoran xo'jaliklarida mehnat unumdorligi va tovar ayirboshlash hajmini oshirish orqali xarajatlar bo'yicha raqobatdosh ustunlikni ta'minlash imkonini oshirishga xizmat qilgan;

restoran xizmatlari sifatini baholash yondashuvi sifat maqsadlarini bosqichlar bo'yicha belgilashni shakllantirish va unga ko'ra ko'rsatiladigan xizmatlarga iste'molchilar talabini qondirish sifatni o'lchash qamrovi va darajasini aniqlash asosida takomillashtirish taklifi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Buxoro viloyatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hududiy dasturi" va "Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha Yo'l xarita"larini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 24-avgustdagi 11/02-30-10291-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida foydalanish iste'molchilarning xizmatdan qoniqish darajasi va sifatini o'z vaqtida tahlil qilish va sifat standartlarini ishlab chiqish orqali raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq xizmat ko'rsatish imkonini kengaytirishga xizmat qilgan;

restoran biznesi raqobat strategiyasi sohada raqobat darajasining ortib borishi sharoitida chora-tadbirlar kompleksida xizmatlarning xavfsizlik darajasini oshirish, restoran xizmatlari infratuzilmasini mutanosib rivojlantirish va yagona axborot

tizimini ishga tushirish zaruratiga ko‘ra takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan “Buxoro viloyatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hududiy dasturi” va “Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha Yo‘l xarita”larini ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 24-avgustdagi 11/02-30-10291-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida restoranlar raqobatbardoshligini oshirishning operatsion, investitsiya, marketing strategiyalarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash darajasini oshirishga va resurslardan yanada samarali foydalanishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Buxoro viloyatida restoran xizmatlari bozorini barqaror rivojlanish dinamikasiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushini oshirishning 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan “Buxoro viloyatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hududiy dasturi” va “Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha Yo‘l xarita”larini ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 24-avgustdagi 11/02-30-10291-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2027-yilga kelib, Buxoro viloyatida yashash va ovqatlanish xizmatlar hajmi va kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yashash va ovqatlanish sohasida band bo‘lganlar sonini oshirishda mavjud imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 4 ta va 10 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK e‘tirof etgan ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 10 xalqaro ilmiy anjumanlarda, 4 ta respublika anjumanlarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning hajmi 135 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflab berilgan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko‘rsatish sohasida “restoran biznesi” va “restoran xizmatlari” kategoriyalarining iqtisodiy mohiyati va mazmunini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar asosida mualliflik ta‘rifi ishlab

chiqilgan hamda restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, sohada restoran tadbirkorligi sohasida xizmatlar samaradorlini baholash usullari tasniflangan.

Hozirgi vaqtda umumiy ovqatlanish korxonalari restoran biznesi bozorini tashkil etadi, ushbu soha esa o'z navbatida har qanday davlat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, o'rni va ahamiyati doimiy ravishda ortib borayotgan iste'mol bozorining ajralmas qismi hisoblanadi. "Restoran biznesi" kategoriyasi ko'p qirrali tushunchadir. Respublikamizda hozirgacha ushbu tushunchaning yaxlit mohiyatini tavsiflovchi ta'rif mavjud emas va barcha davlat standartlari umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyatni tartibga solishga qaratilgan.

Restoran biznesi tadbirkorlik tuzilmalarining asosiy xususiyati restoran mahsulotining zamonaviy bozor talablariga javob berishi kerak bo'lgan moddiy (mahsulot) va nomoddiy (xizmat) tarkibiy qismlariga bo'lingan ikki tomonlama komponentidir. Ushbu sohadagi tadbirkorlik tuzilmalarining o'ziga xos xususiyati odamlarning restoran jarayonida keng ishtirok etishi bo'lib, bu ko'pincha restoran biznesidagi eng katta muammolardan biri – sifatning pasayishi yoki oshishi va standartlashtirishga mos kelmaslikni keltirib chiqaradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, yuqori malakali va bilimli xodimlarning mavjudligi restoran biznesida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik tuzilmalarining muvaffaqiyati garovi hisoblanadi. Restoran biznesining iqtisodiy rivojiga qo'shayotgan hissasi ularning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalariga bog'liqdir.

Restoran biznesi – bu yuqori raqobatbardosh va o'zgaruvchan bozorda samarali boshqaruv qarorlarining uzluksiz oqimi orqali muvaffaqiyatga erishiladigan qarorlar qabul qilish va moliyaviy natijalar o'rtasidagi vaqt oralig'i minimal bo'lgan, restoran yoki boshqa umumiy ovqatlanish korxonalarini tashkil etish va boshqarish asosida amalga oshiriladigan o'ziga xos tadbirkorlik faoliyatidir.

Restoran xizmatlari – bu mijozga maxsus ajratilgan joyda mazali, xilma-xil, sog'lom oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlaydigan, asosiy va gigiyenik talablarga javob beradigan, mijozlarning talabini to'liq va sifatli qondirishga yo'naltirilgan ma'lum turdagi xizmatlar majmuidir.

Xizmatlar bozorining hozirgi holati va restoran biznesining eng ommabop shakllaridan kelib chiqqan holda turli xil mezonlarga ko'ra, restoran biznesi bozorining tadbirkorlik subyektlari tasniflanadi (1-jadvalga qarang).

Restoran biznesidagi raqobat o'ziga xos xususiyatlarga ega, bular: restoran biznesining tadbirkorlik tuzilmalarini hudud jihatdan cheklangan bozorga yo'naltirilganligi; odatda restoran biznesidagi tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasidagi raqobat bayramlar, xizmat uchrashuvlari, sayyohlar va boshqalarga xizmat ko'rsatish uchun shahar miqyosi bilan cheklanadi, hashamatli restoranlar bundan mustasno; arzon narx segmentidagi restoran biznesining tadbirkorlik vakillari, bir xil bozor segmentida ma'lum (ixtisoslashtirilgan) mahsulot assortimentini sotadigan, aholining ovqatlanishdagi turli xil ehtiyojlarini qondiradigan turli xil turdagi ko'plab ovqatlanish korxonalari mavjud bo'lganda faoliyat olib boradi; kam miqdordagi investisiyalar bilan bozorga kirish imkoniyati (arzon narxlar); umumiy

ovqatlanish korxonalarining ishlab chiqarish, sotish va iste'molni tashkil etish funksiyalarini bajarishi bilan bog'liq raqobatning o'ziga xos xususiyati. Bu, bir tomondan, ma'lum hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini, ikkinchi tomondan, iste'molchilarning ehtiyojlarini, ularning to'lov qobiliyatini hisobga olishni talab qiladi.

## 1-jadval

### Restoran biznesi bozorida tadbirkorlik subyektlari tasnifi<sup>6</sup>

№	Tasnifiy belgilari	Turlari
1	Ishlab chiqarish faoliyatining xarakteri bo'yicha	Restoran, bar, kafe, oshxona, tamaddixona
2	Joylashish o'rniga ko'ra	Shaharning savdo va ma'muriy zonasida ishlash, dam olish va ko'ngilochar zonada ishlash, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish, muayyan korxonalar tarkibida ishlash, ko'chma xizmat ko'rsatish restoranlari.
3	Sotiladigan mahsulotlar assortimenti bo'yicha	To'liq xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish korxonalarini, ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini.
4	Mijozlarga xizmat ko'rsatish usuli bo'yicha	Ofisiantlar to'liq xizmat ko'rsatadigan korxonalar, aralash xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish korxonalarini, ko'chma xizmat ko'rsatish korxonalarini.
5	Xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha	Lyuks klass, oliy klass, birinchi klass, o'rta va past darajali, fust-food korxonasi.
6	Xizmat ko'rsatish shakli bo'yicha	Free flow (Fri Flou), shved stoli, food-court, drive-through (drayv srou), keytering.
7	Mijozlarga xizmat ko'rsatish kontingenti bo'yicha	Klub-restoranlar, lyuks klasslar, jamaoviy xizmatlar ko'rsatuvchi restoranlar.
8	Shakllanish vaqti bo'yicha	Doimiy ishlovchi restoranlar, muayyan vaqt oralig'ida ishlovchi restoranlar.
9	Boshqaruv turiga ko'ra	Mustaqil faoliyat yurituvchi restoranlar, tarmoqli restoranlar.
10	Mijozlar bilan ishlash turiga ko'ra	Xizmat ko'rsatish standartlariga yo'naltirilgan, potokka yo'naltirilgan, doimiy mijozlarga yo'naltirilgan.
11	O'rtacha narxi bo'yicha	400 AQSh dollarigacha, 400-800 AQSh dollarigacha, 800-1000 AQSh dollarigacha va undan yuqori.


Restoran biznesi sohasidagi tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ularni kichik biznesning oddiy tashkiliy tuzilmalari uchun xos bo'lmagan nisbatan tor funksional ixtisoslashuvini o'z ichiga olishidir. Chunki, restoran biznesida tor funksional ixtisoslashuv asosiy maqsadga erishish – "mijozlarning qoniqishi"ni namoyon etadigan sifatli mahsulot bilan ta'minlash sharti sifatida muhimdir. Biroq, restoran biznesida mahsulot sifatini obyektiv baholash restoran mahsulotida ham tovarlar, ham xizmatlar belgilari mavjudligi sababli muammoli bo'lib qoladi.

Har qanday umumiy ovqatlanish korxonasining faoliyati samaradorligi taqdim qilinayotgan xizmatlarning sifatiga bog'liqdir. Restoran xizmatlari sifatining alohida xususiyatlari quyidagilardan iborat: kasbiy ko'nikma (restoran xodimlarining

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xizmat ko'rsatish jarayonida talab qilinadigan yuqori bilim, malaka va kasbiy ko'nikmalari); ishonchlilik (restoranning barqaror faoliyati); olijanoblik (tizim noodatiy talablar bo'lgan holatda ham ishdan chiqmaydi); ommabopligi (restoran xodimlari bilan munosabatga kirishishning qulayligi); emotsional holat (mijozlarning o'ziga xos ehtiyojlarini his qilish); kommunikativlik (mijozlarni o'z vaqtida va tushunarli holatda xabardor qilish); ishonchlilik (restoranning obro'si, nufuzi); xavfsizlik (moddiy-ma'naviy hamda axloqiy turli xavflardan himoyalash); xushmuomalalik (yumshoqlik muomala, e'tibor berish, do'stona munosabat); seziluvchanlik (bino, inshootlar, xizmat ko'rsatish xodimlarining jozibadorligi) va h.k.

Restoran tadbirkorligi sohasida xizmatlar sifatini oshirish omillari 1-rasmda keltirilgan bo'lib, ular muayyan standartlar asosida shakllanadi.



**1-rasm. Restoran tadbirkorligi sohasida xizmatlar sifatini ifodalovchi omillar<sup>7</sup>**

Restoranda doimiy sifatni yaxshilash jarayoni xizmat davomida restoran mahsulotining joriy sifati haqida ma'lumot to'plash (mijozlarning qarorlari va istaklari), restoranning haqiqiy sifatini o'rganish va tahlil qilish, restoran mahsulotini mijozlar talablariga uzluksiz moslashtirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Restoran biznesida raqobatbardosh kuchlarning o'sishi quyidagi omillarga bog'liq: restoran biznesini yuritish uchun zarur bo'lgan resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobatning o'sishi; iste'molchi talabining tarkibi va hajmining o'sishi; yangi raqobatchilarning paydo bo'lish ehtimoli; bir-birining o'rnini bosadigan va tubdan yangi mahsulotlarning paydo bo'lishi ehtimoli.

Tadqiqot ishida restoranlarda tovar aylanmasining integral samarasini mehnat unumdorligi, xodimlar soni, reja bajarilish hamda mahsulotlar guruhlarini bo'yicha

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

o‘rtacha narx indeksidagi o‘zgarishlar ta‘sirini omilli baholash ko‘rsatkichi orqali ifodalash taklifi asoslandi (2-jadval).

## 2-jadval

### Restoranlarda tovar aylanmasining integral samarasi<sup>8</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	Hisoblash algoritmi	Shartli belgilari
1	Tovar aylanmasi rejasining bajarilishi	$R_b = \frac{R_h}{R} \times 100\%$	Rb – reja bajarilishi; Rh – rejaning haqiqatda bajarilishi; R – reja ko‘rsatkichi.
2	Tovar aylanmasi o‘zgarishi	$TA = \frac{ICH_j}{ICH_u} \times 100\%$	Ta – tovar aylanmasi o‘zgarishi; ICHj – joriy yilda ishlab chiqarish hajmi; ICHu – o‘tgan yilda ishlab chiqarish hajmi.
3	Umumiy narx indeksi	$N_i = \frac{\sum P_j \times T_1}{\sum P_b \times T_1}$	Ni – narxning umumiy indeksi T1–joriy davrda sotilgan tovarlar (xom ashyo) miqdori; Pj– hisobot davridagi narx; Rb – bazis davridagi narx.
4	Bir ishlangan kishi-soat aylanmasining hajmi	$I_{i/ yu} = \frac{X_{i/ ch}}{I_{k/ s}}$	Ii/ yu– bir ishlangan kishi-soat aylanmasining hajmi; Xi/ ch – ishlab chiqarilgan xizmatlar jami, ming so‘m; Ik/ s– ishlangan kishi/soat soni (kishi/kun).
5	Mehnat unumdorligi	$MU = \frac{X_{i/ ch}}{I_s}$	MU– mehnat unumdorligi, ming so‘m; Xi/ ch – ishlab chiqarilgan xizmatlar jami, ming so‘m; Is – ishchilarning o‘rtacha ro‘yxat bo‘yicha soni, kishi.

Restoran biznesida raqobatchilar harakatining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, restoran biznesi mahsulotining iste‘molchisi, asosan, xizmat ko‘rsatish shaklida unga mahsulot yetkazib berishdan qoniqish hosil qiladi. Ikkinchidan, restoran biznesi sohasidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ko‘lami raqobatda hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Uchinchidan, restoran biznesining tadbirkorlik tuzilmasini raqobatbardosh strategiyasini shakllantirish ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish hududining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. To‘rtinchidan, restoran biznesining raqobat bozorida rezidentlar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashadigan norezident tadbirkorlik tuzilmalarining soni tobora oshib bormoqda. Beshinchidan, restoran biznesida kichik biznesning barcha xususiyatlari va undan kelib chiqadigan afzalliklari va kamchiliklari bo‘ysunadigan kichik biznes ustunlik qiladi. Oltinchidan, restoran biznesi sohasidagi tadbirkorlik tuzilmalarining potensial va real raqobatchilari mijozning ehtiyojini boshqa


<sup>8</sup> Muallif tomonidan guruhlangan.

texnologiya va shakllar bilan qondirishga qodir bo‘lgan boshqa tarmoqlar, do‘konlar, bozorlar, madaniyat va ko‘ngilochar markazlar va boshqalarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari bo‘lishi mumkin. Yettinchidan, davlat boshqaruv subyekti sifatida korxonalarda sanitariya-gigiena me‘yorlari, xarid qilinadigan mahsulotlar – tayyor mahsulotlar va oziq-ovqat xomashyosi hamda korxonadan tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga tegishli talablarga rioya etilishini qat‘iy nazorat qiladi. Sakkizinchi, restoran biznesining tadbirkorlik tuzilmalari ma‘lum darajada uy xo‘jaliklari bilan raqobatga kirishadi, bu ikkita to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi tendensiyalarning birgalikda mavjudligi natijasidir: bir tomondan, samarali ishlaydigan korxonaning potensial mijozning talabini obyektiv ravishda rag‘batlantiradi va boshqa tomondan, zamonaviy sharoitda ko‘plab omillar ko‘plab uy xo‘jaliklarini uyda taom tayyorlashga undaydi.

Dissertatsiya ishining **“Buxoro viloyatida restoran tadbirkorligi sohasi rivojlanishining omillari va ko‘rsatkichlar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida iqtisodiyoti yetakchi davlatlarda restoran tadbirkorligi rivojlanishining holati, Buxoro viloyatida restoran tadbirkorligi sohasining rivojlanish omillari va tendensiyalari hamda restoran xizmatlari sohasi rivojlanishining ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Restoranlarning umumiy soni bo‘yicha yetakchi bo‘lgan AQSh bir ming aholiga to‘g‘ri keladigan restoranlar soni bo‘yicha Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Shu bilan birga, Parij shahri bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng yuqori (2-rasmga qarang).


Shu bilan birga, Parijda har ming aholiga to‘g‘ri keladigan restoranlar soni Nyu-Yorkdagidan sezilarli darajada oshadi. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, bu shaharlar nafaqat yirik ma‘muriy, balki yuqori daromadga ega bo‘lgan ko‘plab odamlar tashrif buyuradigan turistik markazlardir, bu esa restoran xizmatlariga talabni sezilarli darajada oshiradi.



**2-rasm. Har ming aholiga to‘g‘ri keladigan umumiy ovqatlanish tashkilotlari soni(birlikda)<sup>9</sup>**

<sup>9</sup> “National Restaurant Association” assotsiatsiyasi ma’lumotlari asosida tuzilgan - <https://restaurant.org/>.

Yevropa umumiy ovqatlanish bozorida keytering kompaniyalari va yirik brend tez ovqatlanish kompaniyalari ustunlik qiladi. Ular eng yaxshi 100 ta kompaniyaning umumiy savdosining 60% tashkil qiladi. Bundan tashqari, ushbu ikki sohadagi 46 ta kompaniyaning o‘rtacha darajasi reyting ishtirokchilarining o‘rtacha ko‘rsatkichidan sezilarli darajada yuqori (3-rasm).



**3-rasm. Umumiy ovqatlanish xizmatlari turlari bo‘yicha Yevropaning yuzta yirik kompaniyasi tovar aylanmasining taqsimlanishi<sup>10</sup>**

Xorijiy mamlakatlarda restoran biznesining ijtimoiy (sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash ustuvorligini ta‘minlagan holda shaxsni har tomonlama rivojlantirish) va tashabbuskorlik (tarmoq ichidagi tadbirkorlik vakillar bilan o‘zaro munosabatlar doirasi va ko‘lamini kengaytirish), ya‘ni, “sog‘lom oziq-ovqat”ga talabning ortishi; restoranga aloqador tushunchalarning takomillashuvi; tadbirkorlik faoliyatining axloqiy jihatlariga e‘tiborni kuchaytirish; restoran xizmatlarini takomillashtirish; “molekulyar oshxona”ning faol rivojlanishi kabi tajribalaridan milliy restoran xizmatlari bozorida foydalanish, ularning raqobat ustunligini ta‘minlash imkonini beradi.

Restoran biznesi bugungi kunda raqobat darajasi oshib borayotgan sohadir. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo‘ylab ko‘p sonli restoranlar faoliyat yuritmoqda. Restoran biznesi bozorida yangi ochilgan korxonalarining ayrimlari raqobatga dosh bera olmaydi va bozordan chiqib ketadi. Raqobat restoran biznesidagi tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish uchun kuchli rag‘batdir.

Buxoro viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi bo‘yicha ko‘rsatkichlarga nazar solsak, 2017-yilda jami xizmatlarning YaHMDagi ulushi 32,3% ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 7,9% bo‘lgan. Shuningdek, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmining YaHMDagi ulushi 2017-yilda 7,5%, 2023-yilda 7,9% ni tashkil qilgan (3-jadvalga qarang).

<sup>10</sup> “National Restaurant Association” assotsiatsiyasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan - <https://restaurant.org/>.

### 3-jadval

#### Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi (jamiga nisbatan %da) <sup>11</sup>

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
<b>YAHM, jami</b>	100	100	100	100	100	100	100
<b>Xizmatlar</b>	32,3	30,7	30,4	29,0	29,5	29,1	31,2
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	7,3	7,1	7,2	7,1	7,5	7,9
Boshqa xizmatlar	17,5	17,1	17,8	16,6	16,9	16,2	17,9

Restoran xizmatlari ko'rsatishning muhim tamoyili sifatida xo'jalik faoliyati natijasida ko'rilgan daromadlar hisobiga xizmat ko'rsatish xarajatlarining nisbiy darajasini pasaytirish, xizmatlar sifatini oshirishga e'tibor qaratish hamda ishchi-xodimlarning moddiy rag'batlantirish tizimini rivojlantirishni hisobga olish kerak.

Buxoro viloyatida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarga ko'ra, viloyat bo'yicha jami umumiy ovqatlanish korxonalari soni 2023-yilda 2073 tani tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2,3 martaga oshgan. Mazkur davlar oralig'ida mahsulotni realizatsiya qilishdan sof tushum (tovarlar, ish, xizmat) hajmi 2,3 martaga o'sgan. Shuningdek, realizatsiya qilingan mahsulotlar tannarxi 3,5 martaga oshgan. Bunday holat korxonalar o'rsatida raqobatning yuqoriligi natijasida narx bo'yicha raqobat ustunligiga erishishga intilish natijasida yuzaga kelgan. Mahsulot tannarxi tarkibida 2019-2023-yillarda ishlab chiqarish, moddiy xarajatlar hajmi 2,2 marta, davr xarajatlari 8,2 marta va boshqa xarajatlar 4,1 martaga oshgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik (ITTK) ishlariga xarajatlar hajmi bor-yo'g'i 13601 ming so'mni tashkil qilgan (4-jadvalga qarang).

Restoran korxonalarida faoliyatni tashkil etishning ijtimoiy tavsifi shundaki, bunda xaridorlarga tovarlar etkazib beriladi, xaridorlarning vaqti tejaladi va xaridorlarni boshqa sohalarda faoliyati intensivligini ta'minlashga sharoit yaratadi. Qachonki restoranda xizmat ko'rsatish jarayonlari va mehnat faoliyati oqilona tashkil qilinsagina, iste'molchilar sifatli xizmat olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Buxoro viloyatida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushining tarkibiy qismlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni korrelyatsion-regression usullardan foydalanib aniqlash, ko'p omilli regression modellarni tuzish orqali uning rivojlanish istiqbolini belgilash dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishlarini bajarish uchun birinchi navbatda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmiga ta'sir etuvchi barcha omillarni aniqlash va korrelyatsion-regression usullardan foydalanib, ulardan eng asosiy tanlab olishdan boshlanadi. Bu holatda model tuzilishining eng asosiy bosqichi natijaviy, istiqbollashtirilgan ko'rsatkichning tanlab olingan omillarga bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik ifodani tanlash hisoblanadi.

<sup>11</sup> Buxoro viloyati statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

#### 4-jadval

### Buxoro viloyatida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning asosiy ko'rsatkichlari<sup>12</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar					2019-2023 o'sish, %
	2019	2020	2021	2022	2023	
Korxonalar soni, birlik	895	1001	1288	1848	2073	2,3 marta
Mahsulotni realizatsiya qilishdan sof tushum (tovarlar, ish, xizmat), mln. so'm	111095,9	161568,3	192018,4	222468,6	254009,3	2,3 marta
Realizatsiya qilingan mahsulotlar tannarxi (tovarlar, ish, xizmat), mln. so'm	69097,4	104179,0	144120,8	184062,7	241325,1	3,5 marta
shu jumladan:						
ishlab chiqarish, moddiy xarajatlar, ming so'm	49102,5	85304,1	97452,2	100124,4	110123,4	2,2 marta
davr xarajatlari	12025,1	13705	34421	54591,3	98751,7	8,2 marta
shundan:						
ITTK ishlariga xarajatlar, ming so'm	4679	-	11537	20226	13601	-
boshqa xarajatlar	7969,8	5169,8	12247,6	29347	32450	4,1 marta

Buxoro viloyatida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushiga ta'sir etuvchi omillar tahlili orqali ishlab chiqilgan modelda F-Fisher mezonining haqiqiy qiymati  $F_{\text{haqiqiy}}=305,6$ . Shuningdek, erkinlik darajalari soni surat bo'yicha  $\gamma_1=4$  va maxraj bo'yicha  $\gamma_2=8$  ga teng bo'lganda Fisher mezonining jadval qiymati (mohiyatlik darajasi  $p=0,95$  da) uchun  $F_{\text{jadval}}=3,84$ . Demak, hosil qilingan ko'p omilli regressiya tenglamamiz ahamiyatli hisoblanadi (5-jadval).

#### 5-jadval

### Modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari<sup>13</sup>

Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsienti R	Ko'p omilli determinatsiya koeffitsienti R-kvadrat	Korrektlashtirilgan R-kvadrat	Baholashning standart xatosi	F-haqiqiy	P-qiymat	DW
0,995	0,989	0,962	0,3395	35,36	0,009	2,15

Demak, regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar yuqori ahamiyatli, ahamiyatli, nisbatan ahamiyatli va ahamiyatsiz hisoblanadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, modelimizga kiritilgan yuqori ahamiyatli va ahamiyatli omillarni alohida ajratib ko'rsatdik (6-jadvalga qarang).

<sup>12</sup> Buxoro viloyati statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.

Chiziqli regression modelga kiritilgan ahamiyatli omillar<sup>14</sup>

	Standartlashtirilmagan koeffitsientlar		Standartlashtirilgan koeffitsientlar	t-mezon	P-miqdor
	B	Standar txato	Beta		
(Konstanta)	0,015	4,7436		0,0032	0,61
X <sub>1</sub>	7,81	0,0002	1,00	39050	0,23
X <sub>2</sub>	0,0007	0,0005	0,64	1,4	0,19
X <sub>3</sub>	0,022	0,0026	1,52	8,4615	0,73
X <sub>4</sub>	0,001	0,0004	-1,61	2,5	0,04
X <sub>5</sub>	6,108	7,1734	0,08	0,8515	0,02

Bunda: natijaviy omil (bog‘liq o‘zgaruvchi) – Y; usul – eng kichik kvadratlar; tanlanma – 2011-2022 y.y.; kuzatuvlar soni – 8ta; ta‘sir etuvchi omillar – 5 ta.

6-jadval ma‘lumotlaridan foydalanib, ekonometrik model quyidagi ko‘rinishda yozamiz. Ishlab chiqilgan chiziqli regressiya modeli quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Y = 0,015 + 7,82 \cdot x_1 + 0,0007 \cdot x_2 + 0,02 \cdot x_3 + 0,001 \cdot x_4 + 6,108 \cdot x_5 \quad (1)$$

Shunday qilib, natijaviy ko‘rsatkich “Buxoro viloyatida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushiga ta‘sir etuvchi omillar”ga “yalpi hududiy mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)”, “xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)”, “yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi (mlrd. so‘m)”, “kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yashash va ovqatlanish sohasida band bo‘lganlar soni (ming kishi)”, “xizmat ko‘rsatish sohasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, (mlrd. so‘m)” kabi omillarning ta‘siri ahamiyatlidir. Bu omillarning o‘rtacha 1,0 %ga o‘sishi viloyatda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushining o‘rtacha 0,98 %ga oshishiga olib keladi.

Dissertatsiya ishining “**Restoran xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida restoran xizmatlari sifatini oshirish usullari va vositalari, restoran xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda restoran tadbirkorligi sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

